O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TALIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
MAGISTRATURA VA KECHKI TA'LIM FAKULTETi

Qo'lyozma huquqida
UDK: 334:74

G`IYOSOVA NODIRAXON JAMOLIDDIN QIZI

PUL MUOMALASI VA UNING QONUNLARI, ULARNING AMAL QILISH DARAJASINI BELGILOVCHI OMILLAR

70310102 – “Iqtisodiyot” (tarmoqlar va sohalar bo`yicha) mutaxassisligi bo‘yicha magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: **PhD Babadjonova M.**

TOSHKENT-2025

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti "Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar **PhD. Babadjonova M.**

Kafedra mudiri **i.f.n. prof. X.S.Asatullayev**

Kechki ta'lim va magistratura fakulteti dekani **i.f.d., prof. J. Karimqulov**

Men, Tuyasova Nodiraxon Jamoliddin qizi ushbu magistrlik dissertatsiya ishini mustaqil bajardim. Ko'chirmachilik holati yo'qligiga javob beraman. Ko'chirmachilikka yo'l qo'yilgan holatida magistrlik dissertatsiya ishi Yakuniy davlat attestatsiya komissiyasi raisi taqdimnomasiga asosan bekor qilinishi va "qoniqarsiz" baho qo'yilishidan xabardorman.

20.05.2025

TOShKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI DASTLABKI HIMOYASI BAYONNOMASI

Toshkent shahar **2025 yil "11" апреля**

Iqtisodiyot fakul'teti 2-kurs 70310102-"Iqtisodiyot" tarmoqlar va sohalar mutaxassisligi MEKP-03 guruhi magistranti Гиёсова Нодирахон Жамолиддин кизи ning "Иқлим ўзгаришлари ва уларни камайтиришнинг иқтисодиётга таъсирини баҳолаш механизмлари" mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasining dastlabki himoyasi natijalariga ko'ra quyidagi kamchiliklar qayd etildi:

1. Диссертациянинг режа асосларини мавзунинг моҳиятини тўлиқ очиб бера олмаган.
2. Диссертациянинг ёзилиш услубига қўйилган талаб, стилистик хатоларга йўл қўйилган.
3. Иловаларни ўзбекчалаштириш ва адабиётлар рўйхати, кутилаётган натижалар қисмини тўлдириш керак.

Magistrlik dissertatsiyasi yuzasidan xulosa (KIMKda himoyaga **tavsiya etiladi/tavsiya etilmaydi)** Тавсия этилади.

Komissiya raisi: Абдуназаров К.С.

Komissiya a'zolari: Расулов А.Ф.

Одилова О.Б.

Шарипов Ж.Б.

Мамаюсупов М.А.

Izoh:

1. Magistrlik dissertatsiya dastlabki himoyasi talab qilingan xujjatlar to'liq rasmiylashtirilgan va taqdim etilgan holdagina amalga oshiriladi.

“Pul muomalasi va uning qonunlari, ularning amal qilish darajasini belgilovchi omillar” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasining

ANNOTATSIYASI

Tayanch so‘zlar: pul muomalasi, raqamli pul, blokchain loyihasi, kiberxavfsizlik, inflyatsiya, monetar siyosat, iqtisodiy barqarorlik, pul aylanish tezligi.

Tadqiqot obyekti: Mazkur dissertatsiyaning obyekti – O`zbekiston Respublikasi Markaziy Banki faoliyati tahlil qilingan hamda pul muomalasi va uning iqtisodiyotdagi amal qilish darajasini belgilovchi ichki va tashqi omillar.

Ishning maqsadi: Tadqiqotning maqsadi pul muomalasi jarayonlarini chuqur o‘rganish, uning iqtisodiyotdagi rolini aniqlash hamda pul muomalasi samaradorligini ta’sir qiluvchi asosiy omillarni aniqlashdan iborat. Pul muomalasi jarayonlarini takomillashtirish usullarini tadbiq etish.

Tadqiqot metodlari: Dissertatsiya ishida empirik tahlil, statistik usullar, iqtisodiy modellash, solishtirma tahlil va tizimli yondashuv, Pest tahlili hamda Swot tahlili kabi metodlaridan foydalanilgan.

Olingan natijalar va ularning yangiligi: Tadqiqot davomida pul muomalasi tizimining iqtisodiy jarayonlardagi ahamiyati va uning samaradorligini belgilovchi asosiy omillar, xususan, inflyatsiya darajasi, pul taklifi o‘zgarishlari, markaziy bankning monetar siyosati va iqtisodiy o‘sish sur’atlari aniqlanib, ularning o‘zaro ta’siri tahlil qilindi. Yangilik sifatida, pul muomalasi samaradorligini oshirishda innovatsion monetar mexanizmlarning ahamiyati, raqamli pul muomilasini joriy qilish va ularning istiqbollari taklif qilindi.

Amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalari pul muomalasi tizimini takomillashtirish, monetar siyosatni samarali boshqarish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda foydalanilishi mumkin. Shuningdek, iqtisodiy o‘sish va inflyatsiya darajasini barqarorlashtirish uchun pul muomalasi omillarini boshqarish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tatbiq etish darajasi va uning iqtisodiy samaradorligi: Olingan natijalar makroiqtisodiy siyosatni shakllantirishda, moliya va bank sohalarida amaliy qo‘llanilishi mumkin. Pul muomalasi samaradorligini oshirish iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashga va raqamli pul muomilasi tizimini xorij tajribasida integratsiyasini amalga oshirish orqali pul muommilasining samaradorligini oshirishga erishiladi.

Qo‘llanish sohasi: Dissertatsiya natijalari makroiqtisodiyot, moliya-kredit tizimi, markaziy bank faoliyati, iqtisodiy siyosat va tadqiqot institutlarida qo‘llanilishi mumki

Master's dissertation on the topic "Money circulation and its laws, factors determining the level of their application."

ANNOTATION

Keywords: money circulation, digital currency, blockchain project, cybersecurity, inflation, monetary policy, economic stability, velocity of money.

Research object: The object of this dissertation is the activity of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan, as well as the internal and external factors determining the level of money circulation functioning in the economy.

Purpose of the study: The purpose of the research is to deeply study the processes of money circulation, determine the role of money in the economy, and identify the main factors affecting the efficiency of money circulation. Implementation of methods to improve money circulation processes.

Research methods: The dissertation employs empirical analysis, statistical methods, economic modeling, comparative analysis, systematic approach, as well as PEST and SWOT analyses.

Results obtained and their novelty: The study identified the main factors determining the importance and efficiency of the money circulation system in economic processes, such as inflation rate, changes in money supply, the Central Bank's monetary policy, and economic growth rates, and analyzed their interrelations. As a novelty, the importance of innovative monetary mechanisms, the introduction of digital currency, and their prospects to enhance money circulation efficiency were proposed.

Practical significance: The research results can be used to improve the money circulation system, effectively manage monetary policy, and ensure economic stability. Recommendations were developed for managing money circulation factors to stabilize economic growth and inflation levels.

Level of application and economic efficiency: The obtained results can be applied in macroeconomic policy formation, finance, and banking sectors. Improving money circulation efficiency contributes to strengthening economic stability and integrating the digital currency system based on foreign experience.

Scope of application: The dissertation results can be applied in macroeconomics, financial-credit systems, Central Bank activities, economic policy, and research institutions.

MUNDARIJA

	KIRISH	**3**
I BOB	**PUL MUOMALASI VA UNING QONUNLARI, ULARNI AMAL QILISHINING KONSEPTUAL ASOSLARI**	**11**
1.1.	Pul to`g`risida nazariy konsepsiyalarning tarixiy sharhi	11
1.2.	Pul muomalasi va uning amal qilish qonuniyatlari to‘g‘risida nazariy yondashuvlar	17
1.3.	Raqamli pul muomalasi. Kiberxavfsizlik tahdidlarining raqamli pul muomalasiga ta`siri	30
	I bob bo`yicha xulosa	42
II BOB	**RIVOJLANGAN MAMLAKATLARNING AMALDA BARQAROR PUL TIZIMINI YO`LGA QO`YISHDAGI XORIJ TAJRIBASI**	**44**
2.1.	Rassiya hamda AQSHning amalda barqaror pul tizimini yo`lga qo`yishdagi xorij tajribasi	44
2.2.	Bugungi jahonda yuz berayotgan savdo urushlarining mamlakatlar pul muomalasi tizimiga ta`siri	48
2.3.	Rivojlangan mamlakatlar tajribasida pul muomalasi tizimining asosiy muammolari va ularni hal etish yo‘llari	51
	II bob bo`yicha xulosa	55
III BOB	**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PUL MUOMALASINI TAKOMILLASHTIRISH YO`LLARI HAMDA SOHA DOIRASIDA KELAJAKDA KUTILAYOTGAN ISTIQBOLLAR TAHLILI**	**57**
3.1.	O`zbekiston iqtisodiyotida pul muomalasini takomillashtirishning hozirgi davrdagi holati	57
3.2.	Mamlakatimizda pul muomalasini rivojlantirish borasidagi kelajakda kutilayotgan istiqbollar tahlili	71
	III bob bo`yicha xulosa	81
	XULOSA VA TAKLIFLAR	**83**
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	**85**
	ILOVALAR	**88**

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Pul munosabati iqtisodiyotning muhim elementlaridan biri bo‘lib, iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Pul orqali tovar va xizmatlar almashinuvi, investitsiyalar, kredit operatsiyalari va boshqa moliyaviy jarayonlar amalga oshiriladi. Bundan tashqari, pul muomalasi iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, inflyatsiyani nazorat qilish hamda moliyaviy tizim samaradorligini oshirishda katta ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida pul munosabatlarini modernizatsiya qilish, bank va moliya institutlarining faoliyatini yaxshilash, raqobatbardoshlikni oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash, raqamli to‘lov tizimlarini joriy etish va rivojlantirish orqali moliyaviy xizmatlarga kirishni osonlashtirish, iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasini ta’minlash, moliya bozorlarini diversifikatsiya qilish, yangi moliyaviy mahsulot va xizmatlarni joriy etish hamda xorijiy investorlarni jalb qilish zarurligini ta’kidlaganlar.

Pul muomilasi iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo‘g‘ini bo‘lib, uning samarali va barqaror faoliyati mamlakatning iqtisodiy barqarorligi, ijtimoiy farovonligi hamda uzoq muddatli rivojlanishining asosiy omillaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Ayniqsa, zamonaviy global iqtisodiy sharoitlarda, xalqaro moliya bozorlarining integratsiyasi, iqtisodiy o‘zgarishlarning tezligi va murakkabligi ortib borayotgan bir paytda, pul muomilasining qonunlari va ularning amaliy qo‘llanilishi yanada dolzarblashmoqda. Pul muomalari tizimining samarali boshqarilishi jarayonlarning uzluksiz va muvozanatli rivojlanishini ta’minlash, inflyatsiya va deflyatsiya kabi makroiqtisodiy muammolarni samarali oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida farmonida pul munosabatlarini takomillashtirish haqidagi chora tadbirlar belgilab ko`rsatilganligi alohida ahamyat kasb etadi. Jumladan “O`zbekiston – 2030” strategiyasining 49- maqsadida